

UDK 62

Giyasov Shahboz, uqituvchi

Giyasov Shahboz, teacher

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi

Bukhara academic Lyceum of the Ministry of internal affairs of the

Republic of Uzbekistan

XALQARO HUQUQDA TERRITORIAL BAHSLAR

MUAMMOSINING HAL ETILISHI

THE SOLUTION OF THE PROBLEM OF TERRITORIAL DISPUTES

IN INTERNATIONAL LAW

РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ СПОРОВ В

МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ

Аннотация: Эта статья посвящена анализу региональных проблем и безопасности границ в международном праве.

Suummary: This article is devoted to the analysis of regional problems and border security in international law.

Ключевые слова: граница, территория, сотрудничество, неприкосновенность, проблема, конфликт, суверенитет, политика.

Key words: border, territory, cooperation, immunity, problem, conflict, sovereignty, politics.

Bugungi kunda hududiy muammolar masalasi xalqaro jahon hamjamiyatida muhim ahamiyatga ega, chunki u davlatlarning asosiy huquqlari, suvereniteti va xalqaro tinchlik masalalari bilan chambarchas bog'liq. Hozirda jahon hamjamiyati barqarorligi doimiy ravishda buzilishiga xalqaro muammo va nizolar katta ta'sir o'tkazmoqda. Shu boisdan, territorial muammo va kelishmovchiliklar ko'pincha madaniyatlar, dinlar va etnik millatchilikka olib kelishi mumkin bo'lsa-da, ammo ko'pincha daryolar, unumdor yerlar, mineral yoki neft resurslari kabi tabiiy resurslarga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lmoqda.

Chegara kelishmovchiliklarini hal etish murakkab huquqiy jarayon hisoblanadi. Xalqaro huquqda jarayonlar aniq, xalqaro konvensiyalar yoki yurisprudensiya vositasida belgilangan ustuvor me'yorlar to'plamidan kelib chiqib raqobatchi da'volar yuzasidan, hudud masalasida milliy suverenitetni aniqlash (tarixiy, madaniy, etnik, madaniy, diniy va boshqa siyosiy- iqtisodiy omillarga tayanadi). Hukumatlar siyosiy jihatdan noqulay ahvolga tushib mazkur kelishmovchiliklarni bartaraf etishni qabul qilishlari kerakdir. Bunda milliy manfaatlariga zarracha bo'lsada salbiy ta'sir yetkazilmasligi kerak. Munozara mavzusi obyektlarida muhim iqtisodiy aloqalar olib borilgan (Polyak korridor bahsi 1939 – yilda Ikkinchi jahon urushiga olib kelgandi). Bunday joylarda terrorism, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashiladi (ShHT faoliyati bunga misol). So'nggi yillarda bahsli hududlardagi resurslarni birgalikda ishlatish bilan bog'liq yangi noan'anaviy yondashuvlar ham yo'q emas (Kuril orollari). Demak territorial muammolarni hal etishning yagona yo'li hamkorlik va mushtarak taraqqiyot g'oyalariga asoslangan birdamlikdir.

Xalqaro sud mahkamalari esa so'nggi chora sifatida tanlanishi lozim. Bunday sud jarayoni adolatli yechim chiqarishi kerak. Shunday yo'l yitilganda insoniyatga katta ofat olib boruvchi qurolli nizolarning oldini olingan bo'lar edi. Odatda mazkur muammoni hal etishda uchinchi bir tomon yoki davlat arbobi xizmatlariga ham tayaniladi.

Hudud muammosi murakkab siyosiy hodisa bo'lib, bunda turli siyosiy doiralar davlatlar va manfaatdor guruhlarining qiziqishlari kesishadigan hodisadir. Oddiy bir muammodan tashqi siyosatni yuritish vositasi sifatida foydalanish endilikda eskirgan usul hisoblanadi. XXI asrdagi hududiy muammolar taqdiqotchilar fikriga qaraganda transmilliy korporatsiyalar tomonidan ham kelib chiqishi mumkin.

Xalqaro hududiy muammolar ikki tomonlama tarzda hal qilinsa ko'proq natija beradi. Lekin mazkur muammo yechimining uch va ko'ptomonlama yechimlari ham mavjudki, bunda vaziyatdan kelib chiqqan holda davlatlar unisi yoki bunisiga murojaat qiladilar. Hududiy muammolarning uzoq muddat davomida

yecholmaslik qarama-qarshi tomonlarning raqobatchi bloklarga qo'shilishlariga sabab bo'ladi. Bu esa xavfli tendensiya hisoblanadi. Obro'-e'tiborli shaxslar xizmatiga tayanish ham yaxshi samara beradi. 1970-yillarda Genri Kissinjer ko'plab muammolarni hal qilib 20-asrning eng obro'li kishilari qatoriga kirgan. Mintaqaviy mojaroga tashqi kuchlarning aralashuvi ko'plab tashqi xavf-xatarlarni uyg'otadi. 2005 yilda Chegaralar komissiyasi mukofotining tashkil etilganligi ijobiy holatdir. Bu tinchlik hukmronlik qiluvchi chegaralari bor mamlakatlarga taqdim qilingan mukofotdir. Endilikda mazkur jarayonga keng omma jakb qilishayotganligi tahsinga sazovordir.

Bejizga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan Farmonning beshinchi yo'nalishida mamlakatimiz aholisi barcha qo'shnilar va xorijiy sheriklar bilan teng hamkorlikka chaqirilmagan. Bu xalqaro hamkorlikni kengaytirishni talab qiladi. Buni biz so'nggi bir yarim yil ichida mamlakatimizning qo'shnilari bilan avvalalari yopiq bo'lgan 40 dan ziyod chegara kirish-chiqish postlari faoliyatining qaytadan ishlay boshlaganligida ko'rishimiz mumkin. Bu O'zbekiston siyosatida teng sherikchilik va hamkorlik g'oyalari ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Fikrimizcha davlatlar o'rtasida ortiqcha ehtirosga berilmay muammolarni stol ustida hal qilish eng samarali usul hisoblanadi. Bu asrlar davomida shakllangan va ajdodlar tajribasida sinalgan eng yaxshi amaliyotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Устав Организации Объединенных Наций (Сан-Франциско, 26 июня 1945 г.) // Сборник действующих договоров, соглашений и конвенций, заключенных СССР с иностранными государствами. Вып. XII. М., 1956.

2. Статут Международного Суда ООН (Сан-Франциско, 26 июня 1945 г.) // Международное публичное право. Сборник документов. Сост. К.А. Бекяшев, А.Г. Ходаков. Т.1. М., 1996 . С.404-414.

3. Гаагская конвенция о мирном разрешении международных столкновений от 17 июля 1899 г. (<http://avalon.law.yale.edu/subjectmenus/lawwar.asp> дата обращения 09 ноября 2008).

4. Ergashev I., Farxodjonova N. Integration of national culture in the process of globalization //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 477-479.

5. Farxodjonqizi F. N., Dilshodjonugli N. S. Innovative processes and trends in the educational process in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 4. – С. 621-626.

6. Farxodjonova N. F. MODERNIZATION AND GLOBALIZATION AS HISTORICAL STAGES OF HUMAN INTEGRATION //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 3. – С. 16-19.

7. Numonjonov S. D. Innovative methods of professional training //ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81). – 2020. – С. 747-750.

8. Sodirjonov, M. M. (2020). EDUCATION AS THE MOST IMPORTANT FACTOR OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT. Theoretical & Applied Science, (4), 901-905.